

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



61010400–Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi  
bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi  
imtihon




DASTURI



Ixtisoslik fanlari:

- 1.19. – “Xalqaro turizm”
- 1.25. – “Turopereyting”
- 1.26. – “Turizmda rejalashtirish”

## ANNOTATSIYA

Ushbu dastur Buxoro davlat universiteti 61010400-Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalaridan ixtisoslik fanlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonini o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lib, dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda 836-sonli "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**  **Ibragimov N.S.** – "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrası mudiri, i.f.d.  
 **H.R. Hamroev** – "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrası professori, i.f.n.  
 **G.R. Xidirova** – "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrası dotsenti, i.f.d.

**Taqrizchilar**  **B.N. Navruz-Zoda** – "Marketing va menejment" kafedrası professori, i.f.d.  
 **Sh. Hayitov** - Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Menejment kafedrası mudiri, i.f.n., dotsent

**Imtihon dasturi Buxoro davlat universiteti kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.**

2025 yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - sonli bayonnoma.

## KIRISH

Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash. Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish bugungi kunda oliy ta'lim oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir.

Fanlar bo'yicha bilimlar majmuasini o'zlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulotlar uzviyligida malaka hamda ko'nikmalarni mukammal shakllantirishda Yakuniy davlat attestatsiyasining o'rni beqiyos.

61010400 – Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha 4-kurs talabalarining Yakuniy davlat attestatsiyasini to'g'ri tashkil qilish bo'lajak yosh mutaxassislarni real ishlab chiqarish sharoitlariga tayyorlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu dastur iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida 61010400 – Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha 4-kurs talabalarining Yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishning asosi hisoblandi.

Mazkur ta'lim yo'nalishining namunaviy o'quv rejasiga binoan Yakuniy davlat attestatsiyasi eng yuqori soatlarga ega bo'lgan fanlar majmuidan tashkil topgan.

"Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrası jamoasi oliy o'quv yurti talabalarini Yakuniy davlat attestatsiyasini zamon talablariga to'la hamoxang ravishda, ilmiy jihatdan mukammal holda tashkil etish masalasini butun o'quv jarayonini takomillashtirish sohasida muhim yo'nalish deb hisoblaydi.

Mazkur dastur 61010400 – Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha 4-kurs bakalavriat bosqichi uchun qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablari va Respublika oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasdiqlagan o'quv rejalariga binoan tuzildi. Ushbu dasturni tuzishda oliy ta'limni tubdan isloh qilish ishini jadallashtirish borasida qo'yilgan vazifalar hisobga olindi. Dasturni tuzishda ushbu yo'nalishning o'quv rejasi asos qilib olindi. Ushbu dasturni tuzish jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uzviy bog'lash haqidagi Xalqaro standart talablari, Davlat statistika qo'mitasi yo'riqnomalari hamda BuxDU "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrası va boshqa oliy o'quv

yurtlari tomonidan talabalarning Yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish sohasida ko'p yillik amaliy faoliyati natijasida to'plangan tajribalari hisobga olingan.

**61010400 – Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi yozma ishlarini**

**BAHOLASH MEZONLARI**

|   |                        |  |   |
|---|------------------------|--|---|
| <p>Yozma ish<br/>Yozma ish uchun 4 tadan savol tuziladi va har bir savolga "0" balldan "25" ballgacha baholanadi.</p> | <p>20-25-<br/>ball</p> | <p>Talaba berilgan yozma ishdagi 4 ta savolning har birini mohiyatini tushunishi, bilishi, tasavvurga ega bo'lishi lozim. Uni ilmiy asoslagan holda ijodiy fikrlab, mustaqil mushohada yuritib, imloviy xatosiz yoritib berishi hamda shu sovollarda berilgan ma'lumotlarni taqqoslay olishi, xulosa va qarorlar chiqargan holda, amalda qo'llay biling kerak. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, yozma ishga maksimal 100 ball (4x25 ball) qo'yiladi. Talabani fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatgichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi (har bir savol uchun):<br/>20-25 ball uchun talabani bilim darajasi qo'yidagilarga javob berishi lozim:<br/>xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarni amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.</p> | <p>Umumiy ball - 100 ball<br/><br/>86-100-<br/>ball. A'lo,<br/>(86-100 %)</p>                     |
|   | <p>15-20<br/>ball</p>  | <p>Talaba berilgan yozma ishdagi 4 ta savol to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lishi lozim. Savolni mohiyatini tushungan holda mustaqil mushohada yuritib, savol mazmunini yoritib berishi kerak. Berilgan ilmiy ma'lumotlarni o'zaro taqqoshga qiynaladi, xulosalar yakuniga yetmagan. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, yozma ishga 20 ball (5x4 ball) qo'yiladi. 15-20-ball ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim;</p>  | <p>71-85-<br/>ball.<br/>yaxshi<br/>(71-85 %)<br/><br/>55-70-ball<br/>Qoniqarli,<br/>(55-70 %)</p> |

|                       |  |
|-----------------------|--|
| <p>10-15<br/>ball</p> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;</li> <li>• mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bulish.</li> </ul> <p>Talaba yozma ishdagi 4 ta savolni mohiyatini tushunishi, tasavvurga ega bo'lishi, qisman bilishi hisobga olinadi. Ilmiy ma'lumotlar qisman yozilgan, bu ma'lumotlar asosida mustaqil fikr va xulosalar yurita olmaydi. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, yozma ishga 15 ball qo'yiladi. 10-15-ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.</li> </ul> |
| <p>5-10-<br/>ball</p> | <p>Talaba 4-ta savolning mohiyatini qisman tushunsa, ilmiy ma'lumotlarni yozishda xatoliklarga yo'l qo'ysa. Mustaqil fikr va xulosalar yoritilmagan bo'lsa, yozma ishga jami 10 ball qo'yiladi.</p>  |
| <p>0-5 ball</p>       | <p>Talaba 4-ta savolni mohiyatini tushunmasa, ilmiy ma'lumotlarni bayon etishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilsa, ma'lumotlar asosida mustaqil fikr yurita olmasa, yozma ishga jami 5 ball qo'yiladi.</p>   |

## **1.19. XALQARO TURIZM FANI DASTURINING ASOSIY NAZARIY QISMI**

### **1-mavzu. "Xalqaro turizm" faniga kirish**

Xalqaro turizm" fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari. Turizm to'g'risidagi tushuncha. Turizm tushunchasi bo'yicha turlicha yondashuvlar. Turizm kategoriyalari. Ichki turizm. Xalqaro turizm. Milliy turizm. Xalqaro turizm klassifikatsiyasi (toifalanishi).

### **2- mavzu. Xalqaro turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar**

Geografik omillar. Tabiiy geografik omillar. Iqtisodiy geografik omillar. Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va demografik omillar. Sayyohlar xavfsizligi. Transport, aloqa tarmoqlari va kommunikasiyalar. Turistik infratuzilmalar. Ilmiy texnika taraqqiyoti (yangi texnologiyalar).

### **3-mavzu. Xalqaro turizmning rivojlanish bosqichlari**

Qadimgi (antik) davr turizmi. Qadimgi sayyohlikning rivojlangan markazlari. XV asr oxiri – XVI asr o'rtalarida Buyuk geografik kashfiyotlar. Xalqaro turizmning boshlang'ich davri. Xalqaro turizmning rivojlanish davri. Xalqaro ommaviy turizmning yuksalish davri. Hozirgi zamon xalqaro turizmining rivojlanish dinamikasi.

### **4- mavzu. Xalqaro turizm statistikasi**

XX asrning birinchi yarmi - turistik oqimlarni hisobga olish statistikasi boshlanish davri. Xalqaro turizm statistikasi qismlari. Turistik oqimlar statistikasi. Turistik daromadlar hamda xarajatlar statistikasi. Turistik xarajatlar tarkibi. Turizm statistika usullari. Turizm maxsus tashkil qilinadigan kuzatuvlar. Statistik axborotning to'liqligi va ishonchliligi.

### **5-mavzu. Xalqaro turizmning globalashuv jarayonlari**

Globalashuv tushunchasi. Globalashuvning afzalligi va tanqidiy qarashi. Globalashuv va turizm industriyasi. Globalashuv va madaniyat. Turizm sohasida globalashuvning afzalliklari va kamchiliklari. Turizm sohasida globalashuv muammolari. Globalashuvning kelajagi.

### **6-mavzu. Xalqaro turizm madaniy xilma-xillik alomatlari**

Madaniy xilma-xillik to'g'risida tushuncha. YuNESKOning madaniy xilma-xillik to'g'risida umumjahon deklaratsiyasi. Madaniy xilma-xillikning kelajagi. Turizm va mehmondo'stlik industriyasida madaniy xilma-xillik muammolari.

### **7-mavzu. Xalqaro turizm madaniyat masalalari**

Madaniyat ta'rifi. Madaniyatning rivojlanishi. Madaniyatning regionlashuvi. Madaniyat va din. Dunyoning asosiy dinlari. Madaniyatning xillari va madaniylik darajalari. Turizm sohasida madaniyat turlari.

### **8-mavzu. Xalqaro turizm xizmat ko'rsatish madaniyati**

Xizmat ko'rsatish tushunchasi. Kutib olish xizmati. Xizmat qilishni turkumlash. Xizmat ko'rsatishning asosiy ta'rifi. Turizm xizmat ko'rsatish madaniyati. Xizmat ko'rsatishdan qoniqish.

### **9-mavzu. Xalqaro turizm madaniyatning o'z-axloqqa ta'siri**

Madaniyatning o'z-axloqqa ta'siri. O'z-axloq (etika) to'g'risida tushuncha. Turizm o'z-axloq. Ish jarayonidagi eng muhim bahsli masalalar etikasi. Turizm va mehmondo'stlik sohasidagi amaliyotda uchraydigan o'z-axloq muammolari. Turizm global etiket qoidalari.

### **10-mavzu. Xalqaro turizm inson xulqi: uning tabiati va asosiy**

#### **ta'riflovchi omillari**

Inson xulqi konsepsiyasi. Inson xulqiga ta'sir etuvchi ekologik omillar. Inson xulqi nazariyalari. Inson xulqining asosiy ehtiyojlari. Inson ehtiyojlariga ta'sir etuvchi omillar. Turist xulqi tushunchasi. Turist xulqini o'rganishning ahamiyati.

### **11-mavzu. Xalqaro turizm madaniy xilma-xillikning tarqalishi**

Yevropa, Osiyo, Afrika, Avstraliya, Hindiston, Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq, Shimoliy Amerika mamlakatlarida madaniy xilma-xillikning ko'rinishi.

## **12- mavzu. Xalqaro turizm bozori**

Turistik talab mohiyati. Ehtiyoj va talab. Turistik talab va Ehtiyojning asosiy belgilari. Xalqaro turizm turistik talablarning har tomonligi (kompleksligi) va ko'p xilliligi. Xalqaro turizm turistik talabning elastikligi. Hozirgi zamon turistik talablar tendensiyasi. Turistik mahsulot tushunchasi. Turistik mahsulotlar xususiyatlari. Turistik mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish omillari. Turistik takliflar mohiyati. Turistik mahsulotlarni taklif qilish va ishlab chiqarish xarajatlari. Turizm takliflar xususiyati.

## **13- mavzu. Xalqaro turizm industriyasi**

Turizm industriyasi tushunchasi. Transport tashish sektori. Turizm transporti taraqqiyotining tarixi. Transport va turizm taraqqiyotining hozirgi zamon bosqichi. Joylashtirish sektori. Turistlarni joylashtirishning jamoaviy vositalari. Mehmonxonalar. Ixtisoslashgan muassasalar. Boshqa kollektiv joylashtirish vositalari. Jahon mehmonxona bazalarining hozirgi davrdagi dinamikasi. Ovqatlanish sektori. Restoranlar. Tez xizmat ko'rsatuvchi restoranlar. Menu (*taomnoma*). Kafeteriyalar. Tamaddixonalar. Pitseriyalar. Bufetlarning asosiy mo'ljallanganligi. Barlar. Sayr - tomosha sektori tushunchasi. Tematik parklar. Turoperatorlar va turagentlar.

## **14- mavzu. Xalqaro turizm bozorida transmilliy kompaniya (TMK) lar**

Transmilliy kompaniyalar: uning mohiyati, faoliyati va shakllari. Mehmonxona xo'jaligida TMKlar. Integratsiyalashgan mehmonxonalar zanjiri. Franshiza. Mehmonxonalar konsorsiumlari. Franchayzing. Turistik TMKning milliy iqtisodiyotga ta'siri. TMKlarning qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri. TMKlar joylashgan mamlakatlari iqtisodiyotiga ta'siri.

## **15- mavzu. Xalqaro turizm aloqa va axborot vositalari**

Turizm axborot texnologiyasi turlari va ularning mohiyati. Kompyuter tizimida o'rnlarni bronlashtirishning paydo bo'lish imkoniyatlari va evolyusiyasi. "Amadeus" tizimining hozirgi davrdagi dinamikasi. "Galileo" tizimlarining yangi imkoniyatlari. Internetda global distryubitor tizimining integratsiyasi. Turistik menejmentda Internet texnologiyalar. Turistik saytlar xususiyatlari va elementlari. Web-sayt xususiyatlari. Onlayn-bronlashtirishning asosiy xorijiy turistik saytlari. Bilimni boshqarish tizimi.

## **16- mavzu. Xalqaro turistik tashkilotlar**

Turizm sohasida xalqaro hamkorlik. Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) uning tashkil etilishi, tarkibi va funksiyasi. Jahondagi nodavlat, tijorat va milliy xalqaro turistik tashkilotlar.

## **17- mavzu. Xalqaro turizm turistik sayohatlarni tashkil etish**

Turistik safarlarni tashkil etishda turistik firmalarning o'rni va roli. Turoperatorlar. Bozor segmentlari bo'yicha turistik firmalarning ixtisoslashuvi. Turistik agentlik (agentlar). Turoperatorlarning xalqaro turlarni tashkil etish xususiyatlari. Turistlarni qabul qilish bo'yicha turoperatorning asosiy funksiyasi. Turistik agentliklarning ish texnologiyasi va funksiyalari.

## **18- mavzu. Yevropa mintaqasi turizmi**

Yevropaning dunyo xaritasida tutgan o'rni va roli. Yevropa mintaqasining turistik resurslari. Yevropaning butunjahon turizmida hissi. Yevropa mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish dinamikasi. Yevropaning turistik davlatlari. Fransiya turizmi. Ispaniya turizmi. Buyuk Britaniya turizmi. Germaniya turizmi. Italiya turizmi. Rossiya federatsiyasi turizmi. Yevropa mintaqasining turistik mamlakatlari.

## **19- mavzu. Osiyo mintaqasi turizmi**

Osiyo mintaqasi mamlakatlari. Mintaqaning jahon turizmida tutgan o'rni va roli. Osiyo mamlakatlarining turistik imkoniyatlari. Mintaqada ichki va xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlari va dinamikasi. Yaponiya turizmi. Xitoy turizmi. Hindiston turizmi. Turkiya turizmi. Malayziya turizmi. Indoneziya turizmi. Tayland turizmi. Janubiy Koreya Respublikasi turizmi. Osiyo mintaqasining turistik mamlakatlari.

## **20- mavzu. Amerika mintaqasi turizmi**

Amerikaning siyosiy xaritasi. Uning tarkibiy tuzilishi. Amerikaning turistik imkoniyatlari. AQSh - jahon turizmida etakchi davlat. Uning xalqaro turizmida tutgan o'rni va hissi. Kanada turizmi. Markaziy va Janubiy Amerika mamlakatlari turizmi.

## **21- mavzu. Avstraliya mintaqasi turizmi**

Avstraliya mamlakatining geografik joylashuvi. Uning turistik imkoniyatlari. Turizm infratuzilma tarmoqlari. Avstraliya turizmi turlari, ularning

geografiyasi. Avstraliya davolash - sog'lomlashtirish turizmi. Avstraliya iqlimiy va dengiz bo'yi kurortlari turizmi.

### **22- mavzu. Afrika mintaqasi turizmi**

Afrikaning geografik o'rni. Turistik imkoniyatlari. Mintaqada ichki va xalqaro turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy to'siqlar. Afrikada turizmning maxsus turlari va ularning geografiyasi.

### **23- mavzu. Yaqin Sharq mintaqasi turizmi**

Dunyo siyosiy xaritasida Yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlari. Yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlarining turistik imkoniyatlari. Mintaqada ichki va xalqaro turizmning rivojlanishi. Yaqin Sharq mintaqasining turistik mamlakatlari va markazlari. Misr turizmi. Isroil turizmi.

### **24- mavzu. Ko'ngil ochish va dam olish maqsadidagi turizm.**

Ko'ngil ochish va dam olish maqsadidagi turizm va uning xususiyatlari. Yevropa mintaqasining ko'ngil ochish va dam olish maqsadidagi turizmi. Amerika qit'asining ko'ngil ochish va dam olish maqsadidagi turizmi. Osiyo qit'asining ko'ngil ochish va dam olish maqsadidagi turizmi. Afrika va Avstraliya mamlakatlari ko'ngil ochish va dam olish maqsadidagi turizmi.

### **25- mavzu. Ishga aloqador turizm**

Ishga aloqador turizm, uning asosiy turlari. Xalqaro yarmarkalar. Xalqaro konferensiyalar va seminarlar. Biznes forumlari, safarlari va uning geografiyasi. Kongres va ko'rgazmalar turizmi, uning turlari va geografiyasi. Insentiv turizmi to'g'risida tushuncha va uning geografiyasi.

### **26- mavzu. Diniy turizm**

Diniy turizm tarixi. Diniy turizm turlari. Xristian dini turizmi markazlari. Buddizm dini turizmi markazi. Musulmonlar dini turizmi markazi. Saudiya Arabistoni Musulmonlar dini markazi (Makka va Madina shaharlari).

### **27- mavzu. Davolash sog'lomlashtirish turizmi**

Davolash – sog'lomlashtirish turizmi. Kurortlar va sanatoriyalar asosiy tiplari (bolneologik, iqlimiy va balchiqli davolash kurortlari). Davolash-sog'lomlashtirish turizmining asosiy markazlari. Yevropa davolash-sog'lomlashtirish turizmi. Amerika davolash - sog'lomlashtirish turizmi markazlari. Okeaniya, Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlari davolash va sog'lomlashtirish turizmi.

### **28- mavzu. Ekologik turizm**

Ekologik turizm to'g'risida tushuncha. Ekologik turizmning kelib chiqish shart-sharoitlari. Ekologik turizmning rivojlanish xususiyatlari. Ekoturizmning xalqaro model (namuna)lari. Milliy bog'lar. Alohida qo'riqlanadigan maxsus hududlar. Qo'riqxonalar. Davlat buyurtma tashkilotlari. Ekologik monitoring (kuzatuv) ning global (umumbashariy, regional, mintaqaviy) va lokal (mahalliy) turlari. Hozirgi zamon ekologik turizmining tamoyillari va turlari.

### **29- mavzu. Qishloq turizmi**

Qishloq turizmining paydo bo'lishi tarixi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida qishloq turizmini tashkil qilishning milliy modellari: Britaniya modeli. Fransiya modeli. Germaniya modeli. Yevropa mamlakatlarida qishloq turizmi geografiyasi. Qishloq turizmini rivojlantirish dasturi va strategiyasi.

### **30- mavzu. Sport turizmi**

Sport turizmi turlari va ularning geografiyasi. Tog'-chang'isi sport turizmi, uning paydo bo'lishi tarixi. Yevropa – tog'-chang'isi sporti rayoni. Shimoliy Amerika – tog'-chang'isi sporti rayoni. Osiyo – Tinch okeani mintaqasi tog'-chang'isi sporti markazlari. Rossiya Federasiyasi tog'-chang'isi sporti turizmi geografiyasi. Tog'-chang'i sporti kurortlarini tashkil etish va rivojlantirish masalalari. Golf turizmi va uning paydo bo'lishi tarixi. Golf turizmi geografiyasi. Yevropa golf turizmi. Osiyo golf turizmi. Dayv turizmi. Uning paydo bo'lish tarixi. Dunyoda dayving turizmi geografiyasi. Ekstremal turizm. Uning turlari. Skeytboarding. Snoubording. Skayserfing. Tog'da velosipeda yurish. Paraplanerizm (paraglayding). Speleoturizm (g'orturizmi).

### 31- mavzu. Xalqaro turizmning maxsus turlari

Xalqaro turizmning maxsus turlari (ilmiy turizm, biznes turizmi, etnik turizmi, yoshlar turizmi, gostronomik turizm, kosmik turizmi va boshq.)

#### FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yvette Reisinger. International tourism cultures and behavior. Elsevier 2009, 450 b.
2. Bob Brotherton. The International Hospitality Industry. Oxford, First published 2003, 251 b
3. Александрова А.Ю. «Международный туризм» Учебник. М: «КНОРУС» 2010 г. 464 б.
4. Mamatqulov M.X. Bektemirov A.B., Tuxliev I.S. "Xalqaro turizm" Darslik. Toshkent., 2009 y. 191 b.
5. Mamatqulov X.M. «Turizm infratuzilmasi» O'quv qo'llanma. –T.: «O'zbekiston faylafuslar jamiyati» nashriyoti, 2011. 335 b.
6. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi.- Toshkent: Fan va texnologiya, 2014, -362b.

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" gi Qonuni. T.: 2019 y.
2. «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2016 yil 2 dekabr, PF-4861-son.
3. «O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2016 yil 2 dekabr, PQ-2666-son.
4. «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak». O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagima'ruzasi. 15.01.2017.

5. Вавилова Е.В. Основы международного туризма. Учебное пособие. М., ГАРДАРИКИ, 2005.
6. Vellas F. Becherel L. International Tourism. An Yeconomic Perspective. Macmillan Pless Ltd, 1995.
7. International Tourism: A.Global Perspective. Madrid: WTO, 1999.
8. Compendium of Tourist Statistics. Madrid: WTO, 2000.
9. Lilly Martine Kunkef. International Tourism Policy and the Role of Governments in Tourism in the Context of Sustainability. GRIN Verlag Germane, 2013.
10. Организация туризма. Под.ред. А.П. Дуровича. Учеб. пособ. Минск. «Новое знание», 2006.
11. Экономика и организация туризма: международный туризм. Под.ред. И.А. Рябова, Ю.А. Забаева, Е.А. Драчевой. Учебное пособие. Издание второе. М.: КНОРУС, 2006.
12. Toshmurodov T. Xalqaro turizm. Darslik. Toshkent. Turon- iqbol, 2007. 320 b.
13. Komilova F.K., Xalqaro turizm bozori. O'quv qo'llanma T.,TDIU- 2006. 191 b.
14. Mamatqulov X.M. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'ati. Toshkent., 2010 y.. 397bet.
15. Сенин В.С. Организация международного туризма. Учебник, Москва 2004., 397 стр.
17. Щербакова С.А. Международный туризм: экономика и география. Учебное пособие. М.: 2007, 144 стр.

## 1.25. TUOPEREYTING FANI DASTURINING ASOSIY NAZARIY QISMI

### 1-Mavzu. "Tuopereyting" fanining maqsadi va vazifalari

Tuopereyting tushunchasi va uning turlari. Tuopereyting-turizm bozorining subyekti sifatida. "Tuopereyting" fanining funksiyalari.

### 2-Mavzu. Turizm bozori va xizmatlari tushunchasi va vazifalari

Turizm bozorining funksiyalari va tarkibi. Turizm bozoriga ta'sir qiluvchi asosiy omillar.

### 3-Mavzu. Tuopereytingda xizmat ko'rsatishni tashkil qilish

Turizm xizmatlari loyihalash. Xizmat ko'rsatish strategiyasi va menejmenti. Xizmat ko'rsatish animatsiyasi. Xizmat ko'rsatish sifati va uni boshqarish yo'llari.

### 4-Mavzu: Turistik marshrutlar ishlab chiqishni rivojlantirishning nazariy asoslari

Turistik marshrutlar turizmni rivojlantirishning asoslaridan hisoblanishi. Turizm marshrutlarini ishlab chiqishning turizm iqtisodiyotidagi o'рни. Turizm marshrutlarini ishlab chiqishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyati.

### 5-mavzu: Turistik marshrutlarni ishlab chiqishni usullari va tamoyillari.

Marshrutlar, yo'llar, so'qmoqlar va turizm marshrutlari haqida tushuncha. Turistik marshrutning kelib chiqishi va uning turlari. Turistik marshrutlarda xizmat ko'rsatish.

### 6-mavzu: Turistik marshrutlar tasnifi va marshrutda xizmatlar ko'rsatishni tashkil qilish

Turistik marshrutlarning mavzular bo'yicha tasniflanishi. Marshrutning harakatlanish vositalari bo'yicha tasniflanishi. Marshrutlardagi joylashtirish va ovqatlantirish xizmatlari. Marshrutlardagi transport xizmatlarini tashkil etish

### 7-mavzu: Xalqaro marshrutlar bo'yicha butunjahon turizm tashkilotining tavsiyanomalari

Jahonda qishloq turizmining shakllanish jarayoni. Qishloq turizmini rivojlantirishning xalqaro modellari va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash. Jaliloo turizmining vujudga kelishida turli mamlakatlarning tajribalari. Qishloq turizmini rivojlantirishda Yevropa davlatlarining dasturlari.

### 8-mavzu: Tuopereytingda turistlar xavfsizligini ta'minlash masalalari

Turistlar xavfsizligini va ularni himoya qilishni qonun yo'li bilan ta'minlash. Turizm xavfsizligining xalqaro-huquqiy jihatlari. Xavfsizlik sohasidagi ayrim turistik tushunchalarni standartlashtirish. O'zbekiston Respublikasining turizm xavfsizligi sohasidagi qonun hujjatlari. O'zbekistonda turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlashning huquqiy me'yorlari. Turistik faoliyatdagi xavf-xatarlar va ularni bartaraf qilishning chora-tadbirlari.

### 9-mavzu: Turizm bozorining marketing tadqiqotlari

Turizm marketing va marketing tadqiqotlari tushunchasi. Turistik marshrutni tanlashdagi marketing tadqiqoti. Turistik marshrutni ishlab chiqish tamoyillari bo'yicha marketing tadqiqotlarini o'tkazish.

### 10-mavzu: Turizm bozorini segmentlash

Segmentlashga yondashuv va uning asosiy maqsadi. Maqsadli bozorlar. Segmentlarning mezonlari, geografik, ijtimoiy-demografik, psixografik mezonlari. Maqsadli bozorlarni aniqlash yo'llari. Bozorni qamrab olish strategiyasi

### 11-mavzu: Turistik mahsulotning hayotiy davri

Turistik mahsulotni taqsimlash samaradorligi. Turistik mahsulotni hisoblash jarayoni. Sotish bo'yicha hamkorlarni tanlash.



### **12-mavzu: Turopereytingda narx yaratish siyosati**

Korxonalar narx siyosati va uning yoʻnalishlari. Narxni shakllantirish konsepsiyasi. Narx mexanizmi va narxni shakllantirish tartib darajasi.

### **13. Mavzu. Turistik mahsulotlarni sotishni tashkil etish**

Turistik xizmatlarni sotish kanallarini shakllantirish. Turistik mahsulotni sotishning asosiy shakllari tavsifnomasi.

### **14-mavzu: Turizm raqobat strategiyasini ishlab chiqish**

Korxonalar raqobatbardoshligiga taʼsir etuvchi omillar. Raqobatbardoshlikni baholash siyosati. Maykl Porterning raqobatlashuv kuchlari. Porterning asosiy raqobatlashuv strategiyalari. Richi va Krauchning destinatsiya raqobatbardoshligi konseptual modeli

### **15 -Mavzu. Turopereytingda reklama faoliyatini tashkil etish**

Turizmni rivojlantirishda reklamaning ahamiyati va turlari. Reklamada marshrutning yoʻnalishi boʻyicha joylashgan diqqatga sazovor turistik obyektlarni tasvirlash. Reklamada marshrut davomida koʻrsatiladigan xizmatlarni tasvirlash.

### **16. Mavzu. Xizmat etkazib beruvchilar bilan hamkorlik va shartnomalar tuzish**

Chartnoma rejasi. Xizmatlar etkazib beruvchilar bilan hamkorlik va shartnomalar tuzish. Mehmonxona xoʻjaligi va ovqatlantirish tashkilotlari bilan shartnoma tuzish. Avtotransport korxonalar va aviakompaniya bilan shartnoma. Temiryoʻl va ekskursiya xizmati koʻrsatuvchi firmalar bilan shartnoma tuzish.

### **FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Илина Е.Н. Туроперейтинг: организация деятельности. Учебное пособие. 2008-240с
2. Жохова В.В. Римская Т.Г. ТУРОПЕРЕЙТИНГ. Учебное пособие. 2014-128с.

3. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm. Darslik, Toshkent, 2014. - 389 b.
4. Tuxliyev I.S., Ibadullaev N.E. Turizm operatorlik xizmatini tashkillosh-tirishning asoslari. Ukuv kullanma.-S.: SamISI, 2011. - 2566.
5. Tuxliyev I.S., Kudratov G.D., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. — T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti. 2010.-263

### **Qoʻshimcha adabiyotlar:**

1. Oʻzbekiston Respublikasining "Turizm toʻgʻrisida"gi qonuni. Toshkent. 2019 yil 18 iyul.
2. Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 19 maydagi "2017-2019 yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahri turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarori. Toshkent. 2017 yil.
3. "2012-2016 yillarda Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirish dasturi toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 may PK.-1754-son qarori.
4. Дурович А.П., Бондаренко Г.А., Сергеева Т.М. и др. Организация туризма. Учебное пособие. 2-э изд. испр. - Мн.: Новое знание. 2005.- 640 стр.
5. Кварталнов В.А. Туризм. Учебник.-М., Финансы и статистика 2004.- 320стр.
6. Mamatkulov X.M. Turizm infratuzilmasi. Ukuv kullanma. —T.: «Uzbekiston faylafuslar jamiyati» nashriyoti, 2011.-2736.
7. Tuxliyev I.S., Bektemirov A.B., Usmanova Z.I. Turizm raqobat strategik marketing. Oʻquv koʻllanma.-S.: SamISI, 2010. -1446.
8. Xayitboev R., Amriddinova R.S. «Turizmning mahsus turlari». Samarqand 2008. 44 b.
9. «Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi 433-son Vazirlar Mahkamasi qarori. 10.07.2020y.
10. "Oʻzbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 09.02.2021 y.

## 1.26. TURIZMDA REJALASHTIRISH FANI DASTURINING ASOSIY NAZARIY QISMI

### 1-mavzu: «Turizmni rejalashtirish» fanining predmeti va vazifalari

Turizm sohasining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rnini. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning istiqbollari. «Turizmni rejalashtirish» kursining maqsadi va vazifalari. Sayohat va turizm tushunchalarning farqi. Turizm tushunchasi va uning shakllanish tarixi. Turizm sohasining tasniflanishi. Turistik xizmatlarning xususiyatlari

### 2-mavzu: Turizmni rejalashtirishning tamoyillari

Turistik hududlarning turlari. Turizmni rejalashtirishning maqsadlari. Turizmni rejalashtirishning darajalari va bosqichlari. Turizm siyosatini va rejasini ishlab chiqish

### 3-mavzu: Turistik mahsulotni ishlab chiqish va rejalashtirish

Turmahsulotning payotiy sikli. Firma foydasini rejalashtirish. Turistik mahsulotni samarali rejalashtirish muammolari. Turistik tovarlar bozorini marketingli rejalashtirish. Turistik xizmatlarni sotish kanallarini shakllantirish. Turistik mahsulotni taqsimlash samaradorligi.

### 4-mavzu: Turizm korxonalarida biznes rejalashtirish

Biznes-rejalashtirishning asoslari. Biznes-reja ishlab chiqishning mavjud modellari. Biznes-rejani ishlab chiqish ketma-ketligi. Turistik xizmatlarni shakllantirishda biznes-rejaning tarkibi. Turizm industriyasi obyektlarini biznes rejalashtirish. Turistik firmalarda biznes reja loyihalari.

### 5-mavzu: Turizm sohasini rejalashtirishning tashkiliy mexanizmlari

Turizmni rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish bosqichlari. Turizmni rivojlantirish rejaları va dasturlarini ishlab chiqish, ularning bajarilishini ta'minlash. Turizm industriyasining rivojlanishini rejalashtirish mexanizmlari. O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari

### 6-mavzu: Turizm industriyasida boshqaruvli rejalashtirishning turlari va usullari

Menejment funksiyalarining mohiyati. Rejalashtirish funksiyasi. Tashkil etish funksiyasi. Motivatsiya boshqaruv funksiyasi sifatida. Xodimlarga bo'lgan talabni rejalashtirish. Turizm industriyasida boshqaruvli rejalashtirishning mazmuni, turlari, usullari va o'ziga xosligi.

### 7-mavzu: Turistik turlarni rejalashtirish

Jozibador turistik mahsulot yaratish. Xizmat ko'rsatish darajalari (klasslari). Xizmatlar paketi. Turistik xizmatlarni loyihalash. Xizmat ko'rsatish dasturi. Turlarni rejalashtirish va shartnomali reja

### 8-mavzu: Turizmni rejalashtirishning strategik jihatlari

O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish siyosatining asosiy yo'nalishlari. Tarkibiy reja va uning mazmuni. Turistik firmalar strategiyasini tayyorlash xususiyatlari

### 9-mavzu: Turistik xizmat bozorining xususiyatlari

Turistik bozorining funksiyalari va tarkibi. Turistik xizmat bozorini segmentlash. Turizm xizmat bozoriga ta'sir qiluvchi asosiy omillar. Turizm sohasidagi bozor rejasining mazmuni. Turistik xizmat bozorida marketing strategiyasi. O'zbekiston Respublikasida turizm bozorining hozirgi holati.

### 10-mavzu: Turizm korxonalarida strategik rejalashtirish

Strategik rejalashtirishning bozor iqtisodiyotidagi o'rnini va roli. Missiya tanlash zaruriyati va mohiyati. Tashqi va ichki muhitni tahlil qilish. Turistik korxonani strategik rejalashtirishda SWOT-tahlil usulini qo'llash. Korxonani profil jadvalini aniq misolda ko'rsatish.

### 11-mavzu: Turizmni rejalashtirishda investitsion dasturlarni qo'llash

Investitsion faoliyatni baholash. Investitsion dasturlarning tarkibiy tuzilishi. Investitsion dasturlarni moliyalashtirishni tashkil etish. Iqtisodiy mezonlar bo'yicha investitsion loyihalarni tanlash.

### 12-mavzu: Turizmda rejalashtirishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy-madaniy jihatlari

Milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalardagi turistik faoliyat natijalarini iqtisodiy baholash. Turizm faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish. Turizmni rivojlantirishda ekologiyaning ta'siri va rejalashtirishda ularni hisobga olish. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish. Turizm faoliyatini rejalashtirishdagi ijtimoiy-madaniy oqibatlar.

### FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risidagi qonuni». 2019.
2. Alieva M.T., Umarjonov A. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005,-339b.
3. Alieva M.T., Salimova B.X., Mexmonxona menejmenti. – T.: Moliya, 2005, - 275 b.
4. Qudratov G'.X., Tuxliev I.S. Turizm iqtisodiyoti. Qo'llanma Sam ISI 2007. 86 b.
5. Kamilova F.K. – «Xalkaro turizm bozori»// o'quv qo'llanma, Toshkent. TDIU-2001
6. Тухлиев И.С. «Стратегическое планирование» Учебное пособие Т.: ТГТУ. 2004
7. Tuxliev I.S., G'.H. Qudratov, Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Toshkent – «IQTISOD - MOLIYA» 2010 – 264 b.
8. Tuxliyev I.S., A.B.Bektemirov, Z.I.Usmanova. Turizmda strategik marketing. Samarqand 2010 y.- 136 b.
9. Tuxliev I.S. va boshqalar. «Turizm asoslari» O'quv qo'llanma. Samarqand. 2010 -247 b
10. Кварталнов В.А. Менеджмент туризма: экономика туризма. Учебник. 2012.

12. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. Учебное пособие М.: Финансы и статистика. 2013 г.

13. Александрова А.Ю. Международный туризм. - М: Аспект Пресс, 2004.

14. Биржаков М.Б. Введение в туризм. С.Пб.: Издательский Торговый Дом «Герда», 2016.

15. Кабушкин.Н.Н. Менеджмент туризма. -Мн.: Новое знание 2015 год.

16. Чудновский А.Д. Управление индустрий туризма.М: КНОРУС. 2015.

17. Юреев А.П. Планирование туризма. Учебное пособие. Донецк 2013 г.

18. Богданов Е.И. Планирование на предприятии туризма СПб.: Изд. «Бизнес-пресс» 2015

19. Бгатов А.П. Туристские формальности. «Академия». М. 2014.

20. Яковлев Г.А. Экономика и статистика туризма. Учебное пособие. М.: Изд. 2015 - 368 ст

### 61010400 – TURIZM (FAOLIYAT YO'NALISHLARI BO'YICHA) YO'NALISHI BITIRUVCHILARI UCHUN IXTISOSLIK FANLARIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOV I SAVOLLARI

1. Tomas Kukning xalqaro turizmni rivojlantirishdagi roli.
2. O'zbekiston Respublikasida turizmni boshqarish tizimi va uning strukturasi.
3. Turistik bozorning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Inkluziv turizm xususiyatlari.
5. Qit'alararo turistik harakatlar dinamikasini tushuntirib bering?
6. Turizmda kelishuv tizimiga asoslangan munosabatlar nimalardan iborat?
7. Turmahsulot reklamasining o'ziga xos xususiyatlari.
8. Gid va uning xususiyatlari
9. O'zbekiston turistik salohiyatini tavsiflang.
10. Turizm industriyasining rivojlanishini rejalashtirish mexanizmlari.
11. Turizm xavfsizlikning xalqaro-huquqiy jihatlari izohlang.

12. Turoperatorning vazifasi nimadan iborat?
13. Globallashuv sharoitida "Yashil" turizmning ahamiyati.
14. O'zbekistonning Turizm to'g'risidagi qonunini izohlang.
15. Turistik marshrut davomida turistlar xavfsizlikni ta'minlash.
16. Turizmda asosiy va qo'shimcha xizmatlarini tavsiflang.
17. Transport xizmatlarining turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati.
18. Xalqaro turizm turoperatorlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.
19. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanish bosqichlari
20. Turistik marshrutlarning qanday turlarini bilasiz?
21. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni tavsiflang?
22. Turistik marshrut sayohat dasturidan qanday farq qiladi?
23. Turizm bozorini segmentlash deganda nimani tushunasiz?
24. Turoperator mahsulotini siljitish tizimiga nimalar kiradi?
25. Xalqaro turizm turoperator xizmatlarining roli.
26. Turlarni rejalashtirish va shartnomali reja.
27. Turizm reklamasining farqli jihatlarini sanab o'ting.
28. O'zbekistonning Turizm to'g'risidagi qonunini izohlang
29. Turistik infratuzilmaning turizm oqimini oshirishda ta'sirini izohlang.
30. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanish bosqichlari
31. Turistik marshrut nima?
32. Turistlar qanday tasniflanadi?
33. Ilmiy texnika taraqqiyoti va turizmning o'zaro bog'liqligi.
34. Mamlakat turizmiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi omillarni tavsiflang.
35. Turistik xizmat xususiyatlari.
36. Initsiativ turoperatorning mohiyatini izohlang
38. Globallashuv sharoitida "Yashil" turizm zaruriyati.
39. Turizm bozorini segmentlashning qaysi usullarini bilasiz?
40. Turizm raqobat strategiyalarini tavsiflang

42. Xalqaro turizmni rivojlantirishda mamlakatning geografik joylashuv xususiyatlari ta'sir etuvchi omil sifatida
43. O'zbekiston Respublikasida turizmni boshqarish tizimi va uning strukturasi.
44. Turistlar qaysi xususiyatiga ko'ra klassifikatsiyalanadi?
45. Turmahsulot marketingi xususiyatlari.
46. Hududda xalqaro turizmni rivojlantirishda ta'sir etuvchi omillar.
47. Turmahsulot va uni turistik xizmatlar bozorida sotish qoidalari.
48. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni tavsiflang?
49. Turistik xizmatlar bozori va uning xususiyatlari
50. Turizmni rivojlantirishga ekologik omil xususiyatlariga izoh bering.
51. Turizmni rejalashtirishning darajalari va bosqichlari.
52. Turfirmaning narx siyosati nimani o'z ichiga oladi?
53. O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanish bosqichlari
54. Turizmni rivojlantirishda turizm infrastrukturasi
55. Turizm siyosatini va rejasini ishlab chiqish.
56. Narx shakllantirish metodologiyasi nima?
57. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "To'siqsiz turizm dasturi" mohiyatini izohlang.
58. O'zbekiston Respublikasida turizmni boshqarish va rejalashtirish tizimini tavsiflang.
59. Xalqaro turizmni rivojlantirishda ta'sir etuvchi omillarni izohlang.
60. Turistik bozorda talab va taklif xususiyatlari.
61. Intensiv-turizm xususiyatlari.
62. Xalqaro turizmni rivojlantirishda iqtisodiy geografik omillar ta'siri.
63. Turizm menejmentining asosiy tamoyillari.
64. Turistik firma foydasini rejalashtirish.
65. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish yo'nalishlari
66. Turizmning rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, demografik omillarning xususiyatlari.

67. Qit'alararo turistik harakatlar dinamikasini tushuntirib bering?
68. Initsiativ turoperatorning mohiyatini izohlang..
69. Turizm industriyasi subyektlarini tavsiflang.
70. Xalqaro turizmda turoperatorlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.
71. Turistik tovarning hayot sikli
72. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanish bosqichlari
73. Turizmni rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish bosqichlari
74. Turistik statistika deganda nimani tushunasiz?
75. Turistik marshrutlarning qanday turlarini bilasiz?
76. Jahonda qancha turistik region ajratiladi?
77. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni tavsiflang?
78. Gid-ekskursiya xizmatlari xususiyatlarini izohlang.
79. Xalqaro turizmning rivojlanish davri izohlang.
80. Turoperatorlik faoliyati va turlari
81. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "To'siqsiz turizm dasturi" mohiyatini izohlang.
82. Xalqaro turizmning asosiy regionlarini ta'riflang
83. Globallashuv jarayonining xalqaro turizmga ta'siri
84. Turistik marshrut sayohat dasturidan farqli jihatlarini tavsiflang.
85. Turizmda hamkorlik munosabatlari deganda nimani tushunasiz?
86. Xalqaro turizm markazlarini haqida ma'lumot bering.
87. Buyuk geografik kashfiyotlarning turizm sohasiga ta'sirini tavsiflang..
88. Turistik paket va turistik mahsulotni farqlang.
89. Turistik marshrut sayohat dasturidan qanday farq qiladi?

Kafedra mudiri:  Ibragimov N.S.